

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SAYDALIYEVA DILZODAXON BOXODIROVNA

**TIL SISTEMASI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PROFESSOR
SHARIFA ISKANDAROVANING MAYDON NAZARIYASI TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Saydaliyeva Dilzodaxon Baxodirovna

Til sistemasi va o‘zbek tilshunosligida professor Sharifa Iskandarovanning maydon nazariyasi tadqiqi..... 3

Saydaliyeva Dilzodaxon Baxodirovna

Language system and field theory research of professor Sharifa Iskandarova in Uzbekistan linguistics 21

Сайдалиева Дилзодахон Баходировна

Система языка и теория поля исследования профессора Шарифы Искандаровой в языкознании Узбекистана 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 41

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SAYDALIYEVA DILZODA BOXODIROVNA

**TIL SISTEMASI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PROFESSOR
SHARIFA ISKANDAROVANING MAYDON NAZARIYASI TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3975 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinova
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sultonova Shohista Muhammadjonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Umarova Nargiza Rustamovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri Boburshoh ko‘chasi 161-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi 161. Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.Y.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d. (DSc), professor

I.O‘.Darvishov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.
(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida muayyan ilmiy yoʻnalishlarga asos solgan, fanning maʼlum tadqiq usullarini faol qoʻllanishga olib kirgan va bu bilan sohada ilmiy-nazariy yangiliklar yaratgan, ayni paytda, ilm-fanga oʻzlarining yangi izdoshlarini yetkazib berayotgan salohiyatli olimlar ilmiy merosini oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Bu kabi tilshunoslar ilmiy faoliyatini keng yoritish asnosida ular tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy tamoyillar va tahlil mezonlari yangi ilmiy xulosalarga olib kelishi, fanning keyingi rivojiga amaliy jihatdan xizmat qilishi bilan dolzarb hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida bugunga qadar fan taraqqiyotiga sezilarli hissa qoʻshgan taniqli olimlarning tadqiq usullari, ular erishgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati kabi muhim masalalarni oʻrganishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tilshunoslikda keyingi vaqtlarda milliy tilning leksik zahirasi va uning nutqiy voqelanish qonuniyatlari hamda bunga xoslangan leksik tizim tarkibiy qismlari asosidagi semantik-funksional maydonlar tadqiqiga eʼtibor kuchaydi. Shu nuqtayi nazardan, tilning jamiyatdagi oʻrnini aniqlashga butun bir umrini bagʻishlagan tilshunos olimlarning mehnatini ulugʻlash va ularning ilmiy merosini tizimli oʻrganish tilshunoslikdagi muhim vazifalardan sanaladi.

Oʻzbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy maktablarning milliy lingvistik tafakkur takomiliga taʼsiri yuzasidan ayrim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq bugunga qadar tilshunos olimlar faoliyatini alohida oʻrganish oʻzbek tilshunosligida kamyob hodisalardan sanaladi. Shu jihatdan, tilshunoslikda oʻziga xos maktab yaratgan, til ilmi rivojiga qoʻshgan hissalar va ulkan xizmatlari davlatimiz tomonidan koʻp bor eʼtirof etilgan olima, professor Sh.Iskandarova ilmiy merosini alohida oʻrganish masalasi ustuvor vazifalardan sanaladi. Sh.Iskandarovanning tilshunos sifatida oʻzbek tili stilistikasi va semasiologiyasi tadqiqi doirasida amalga oshirgan izlanishlari oʻzbek tilshunosligida oʻrganishga arzirlik ishlardan sanaladi. Chunki olimaning oʻzbek tilshunosligida monografik yoʻnalishda kam oʻrganilgan soha – maydon nazariyasiga oid nazariy qarashlari, tahlil va talqinlari, bu boradagi muhim ilmiy xulosalari oʻzbek tilshunosligi uchun katta ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida taʼlim sohasida amalga oshirilishi zarur boʻlgan ishlar haqida toʻxtalar ekan, “maʼnaviyatimiz asosi boʻlgan ona tilimiz” (oʻzbek tili) haqida ham taʼkidlab oʻtdi: “Milliy oʻzligimizning timsoli boʻlgan, maʼnaviyatimiz asosi boʻlgan ona tilimizga eʼtibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, oilamizda ham chet tilini bilish kerak, bu ham hozir zamon talabidir. Lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak¹”. Bu esa, oʻz navbatida, tilshunoslar zimmasiga oʻzbek tili boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirish, tilimizning milliy-lisoniy xususiyatlarini atroflicha oʻrganish, shuningdek, oʻzbek tilshunosligi rivojiga munosib hissa qoʻshgan tilshunos olimlarning ilmiy yutuqlarini keng yoritib berish vazifasini ham yuklaydi. Ana shu jihatdan tilshunos olima Sh.Iskandarova ilmiy tadqiqotlarining nazariy va amaliy

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

ahamiyatini hamda olimlar yaratgan lingvistik maktabning milliy tilshunoslik rivojida tutgan oʻrni va rolini aniqlash soha oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”gi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2020-yil 10-apreldagi Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbek tili bayrami kunini belgilash toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilinishi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyada bildirilgan fikr-mulohazalar manba boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Xorij tilshunoslaridan P.Serio, L.Tenyer, O.Campbell-Thomson kabilar; rus tilshunoslaridan R.I.Avanesov, A.V.Bondarko, R.A.Budagov, V.V.Vinogradov, V.Zinder, V.V.Kolesov, M.I.Matusevich va boshqalar² tilshunos olimlarning ilmiy faoliyatlarini tahlil qilganlar. Jumladan, N.A.Sverdlovaning “Методологические особенности лингвистической концепции Отто Есперсена” (2004), D.A.Samarinning “Методологические особенности концепции активной грамматики Льва Владимировича Щербы” (2010) kabi tadqiqot ishlari yetuk tilshunos olimlarning faoliyatiga bagʻishlangan. Bu borada oʻzbek tilshunosligida D.M.Yuldashevaning 2021-yildagi akademik L.V.Shcherba ilmiy merosini oʻrganishga bagʻishlangan “Лингвистическое и методическое наследие академика Л.В.Щербы”³ mavzusidagi dissertatsiya ishinigina misol qilib keltirishimiz mumkin.

Umuman, oʻzbek tilshunosligida bugunga qadar tilshunos olimlarning ilmiy ijodini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqot ishlari mavjud emasligi sababli, qolaversa, taniqli tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari va ularning ilmiy merosini oʻrganish zaruriyati ishning dolzarbligini belgilaydi.

² Campbell-Thomson O.L.V.Shcherba: a ‘new slant’ on modern foreign languages in the school curriculum? // Curriculum Journal. August 2017. – P.1-33; Пищальникова В.А., Потапов В.В. Лев Владимирович Щерба // Отечественные лингвисты XX века. – М.:ИНИОН РАН, 2003. – С.123–148; Зиндер Л.Р., Маслов Ю.С. Л.В.Щерба – лингвист-теоретик и педагог. –Л.: Наука, 1982; Колесов В.В. Л.В.Щерба. –М.: Просвещение, 1987; Будагов Р.А. Академик Л.В.Щерба. –М.: Наука, 1976.

³ Свердлова Н.А.Методологические особенности лингвистической концепции Отто Есперсена: дисс.... канд. филол. наук. –Иркутск, 2004; Самарин Д.А. Методологические особенности концепции активной грамматики Льва Владимировича Щербы: Дисс.... канд. филол. наук. – Иркутск, 2010; Юлдашева Д.М. Лингвистическое и методическое наследие академика Л.В.Щербы: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD)... дисс. – Кўкон, 2021.

Tilshunos Sh.Iskandarova ilmiy faoliyatining o'rganilishini ikki yo'nalishga: ilmiy va publitsistik yo'nalishlarga ajratish mumkin.

A.Nurmonov hamda S.Mo'minovlarning "Олиманинг тобланиши", В.Yo'ldoshev hamda S.Boymirzayevalarning "Она тилимиз жонкуяри", A.Nurmonov, A.Sobirov, S.Mo'minov, D.Nabiyeva hamda A.Rahimovlarning "Олиманинг тобланиши" kabi⁴ qator ilmiy-tahliliy maqolalari hamda A.Tolipovning "Шарифахон олима", "Иктидорли олима", S.Komilova hamda U.Qodirovaning "Фан доктори", L.Qozixonovaning "Фан фидойиси", M.Abdurahimovaning "Илм ҳам ибодатдир", M.Karimovaning "Шамчироқ. Аёл яратган дунё (Ўзбекистоннинг фидойи аёллари)", A.Tursunovning "Эъзоз ва кадрга муносиб фаолият", M.Abdurahimova hamda M.Tojaliyevaning "Илм нури ёритган йўллар" singari ilmiy-ommabop maqolalari⁵da olimaning inson, ayol sifatidagi fazilatlarini, ilm yo'lida qilgan fidoyiliklari va o'zbek tilida nutq bilan bog'liq izlanishlar rivojiga qo'shgan samarali hissasi, semasiologik tahlillari nisbatan chuqur tadqiq qilingani hamda maydon nazariyasini o'zbek tilshunosligiga olib kirgani munosib baholangan, qator ilmiy-tahliliy maqolalarida professor Sh.Iskandarova qarashlarining originalligi va faktik dalillarga asoslanishi bilan boshqa izlanishlardan farq qilishi ta'kidlangan.

Mazkur maqolalarda olimaning asarlari tahlil etilib, ilmiy jihatdan yuqori baholangan bo'lishiga qaramay, Sh.Iskandarova ilmiy maktabining o'zbek tilshunosligidagi o'rni masalasi monografik asosda maxsus tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilshunosligida taniqli olimlar, jumladan, leksikolog va semasiolog olima Sh.Iskandarovaning fonetika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridagi o'ziga xos yondashuvlarini, ilmiy talqinlarini o'rganish hamda ilm-fanda erishgan yutuqlarini e'tirof etish muhim sanaladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi professor Sh.Iskandarovaning o'zbek tilshunosligi muammolarini o'rganishda tutgan o'rni, tadqiqot usullari, tahlil tamoyillari va natijalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

professor Sh.Iskandarovaning o'zbek tili semasiologiyasiga qo'shgan hissasini zamondoshlari e'tiroflari asosida aniqlash;

olimaning o'zbek tilshunosligida tilga sistem-struktur asosdagi yondashuv bilan bog'liq yangicha qarash va talqinlarini ochib berish;

⁴ Nurmonov A., Mo'minov S. Олиманинг тобланиши // ФДУ. Хабарлар, 2012. – № 4; Yo'ldoshev B., Boymirzayeva S. Она тилимиз жонкуяри // Samarqand, 2013. – № 4; Nurmonov A., Sobirov A., Mo'minov S., Nabiyeva D., Rahimov A. Олиманинг тобланиши // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари to'plami, Andijon, 2013.

⁵ Толипов А. Шарифахон олима // Марғилон ҳақиқати, 1994, 8-iyun; Толипов А. Иктидорли олима // Устоз, 1994, 15-avgust; Комилова С., Қодирова У. Фан доктори // Маънавият, 1999, –№23-24; Қозихонова Л. Фан фидойиси // Марғилон ҳақиқати, 2000, 6-yanvar; Абдурахимова М. Илм ҳам ибодатдир // Саодат, 2002, –№3; Каримова М. Шамчироқ. Аёл яратган дунё (Ўзбекистоннинг фидойи аёллари) // Sharq, 2005; Турсунов А. Эъзоз ва кадрга муносиб фаолият // Фарғона таълими хабарлари, 2012, 12-sentyabr; Абдурахимова М., Тожалиева М. Илм нури ёритган йўллар // Фарғона ҳақиқати, 2012, 12-sentyabr.

Sh.Iskandarovanning soʻz semantikasi doirasidagi semema va sema munosabatlari haqidagi qarashlarini, komponent tahlil asoslarini asoslash;

oʻzbek tilidagi nutqiy odat shakllari talqinidagi nazariy asoslarini ochib berish; olimaning maydon nazariyasi va uning oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisidagi tadqiqotlarini batafsil yoritish;

oʻzbek tilshunosligida yangi yoʻnalishlarning yuzaga kelishida professor Sh.Iskandarova tadqiqotlarining oʻrnini hamda tadqiq usullarini tahlil etish va bu yoʻnalishda olima izlanishlarini ilmiy va nazariy jihatdan umumlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida professor Sh.Iskandarovanning darslik va monografiyalari olingan. Ishda, oʻrni bilan, olima tadqiqotlarining dastlabki nashrlari ham tahlilga tortilgan. Jumladan, “Tilshunoslik nazariyasi” darsligi, “Leksikani mazmuniy maydon asosida oʻrganish”, “Til sistemasiga maydon asosida yondashuv”, “Lugʻaviy birliklarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari”, “Fitrat publitsistik asarlarida oʻzlashma leksemalar” nomli monografiyalari, “Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya”, “Sistem tilshunoslik asoslari”, “Umumiy tilshunoslik”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Tilshunoslikning nazariy masalalari”, “Oʻzbek tili”, “Til strukturasi”, “Nazariy tilshunoslik” singari oʻquv-uslubiy qoʻllanmalari hamda turkum maqolalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini tilshunos Sh.Iskandarova ilmiy maktabining nazariy asoslari, olimaning lingvistik qarashlari va ular tomonidan qoʻllangan tadqiq usullarini oʻrganish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, sintetik, biografik hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

professor Sharifa Iskandarova tadqiqotlari orqali oʻzbek tili leksik tizimiga maydon sifatida qarashning maʼlum afzalliklari koʻrsatilgan; semantik maydon va uning tarkibidagi ayrim mikromaydonlar, ularning tabiati va xususiyatlari, unga yondosh hodisalardan farqlanishi asoslangan;

sistem-struktur tilshunoslik doirasida Sharifa Iskandarovanning leksemalar komponent tahlili, soʻzning maʼnosi va taraqqiyoti, “shaxs” arxisemasi, “tafakkur” arxisemali barqaror birliklarning semantik xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy qarashlari asosidagi olimaning oʻz va oʻzlashma leksemalarning semantikasidagi maydon nazariyalari asosi va koʻlami dalillangan;

professorning temporallik, lokallik, shart va toʻsiqsizlik mikromaydonlari haqidagi xulosalari asoslangan, bu boradagi tadqiqotlarining oʻzbek sistem tilshunosligidagi oʻrni aniqlangan;

oʻzbek tilshunosligida Sh.Iskandarova tadqiqotlarining nazariy ahamiyati yoritib berilgan, olima tadqiqotlari ilmiy maktab izdoshlari tomonidan davom ettirilayotgani koʻrsatilib, olimaning nutqiy odat shakllari, vazifalari va nutqiy vaziyatlar toʻgʻrisidagi tahlil va tasniflarining nutq masalalari bilan bogʻliq izlanishlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tilshunos olim ilmiy merosini oʻrganish asosida Sharifa Iskandarovanning ilmiy maktabiga xos xususiyatlar aniqlangan;

tadqiqot davomida chiqarilgan xulosalar o‘zbek tilshunosligi uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi asoslangan;

sistem tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasi, semasiologiya fanlaridan yaratiladigan ishchi dastur, darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi ko‘rsatilgan;

professor ilmiy maktabi davomchilari asarlarining tahlili natijasida tilshunoslikda olima erishgan yutuqlarning ilmiy asoslari va ahamiyati ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib chiqilayotgan masalalarning aniqligi, g‘oyalarning an’anaviy tilshunoslik qonuniyatlariga zid emasligi, to‘g‘ri izohlanganligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishida qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar orqali asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, tilshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tilshunoslikda muayyan muallif tadqiqotlarida erishilgan yutuqlar hamda ilgari surilgan nazariy fikrlar bilan belgilanadi. O‘zbek tilshunosligi, semasiologiya va turkologiya sohalarini yangi nazariy ma’lumotlar bilan boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalari oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishida “O‘zbek tili tarixi”, “Sistem tilshunoslik”, “O‘zbek tili semasiologiyasi”, “O‘zbek tili leksikologiyasi”, magistratura yo‘nalishida “Til qurilishi birliklari”, “Lisoniy semantika” kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilshunosligida leksik va semasiologik, stilistik sathlarning o‘rganilishida professor Sh.Iskandarova ilmiy maktabining o‘rni va mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

professor Sh.Iskandarova tadqiqotlari orqali o‘zbek tili leksik tizimiga maydon sifatida qarashning ma’lum afzalliklari, semantik maydon va uning tarkibidagi ayrim mikromaydonlar, ularning tabiati va xususiyatlari, unga yondosh hodisalardan farqlanishi asoslangan xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2024-yil 23-avgustdagi 349/1-son ma’lumotnomasi). Natijada orqali o‘zbek tili leksik tizimiga maydon sifatida qarashning ma’lum afzalliklarining ahamiyatini yoritilishiga erishilgan;

sistem-struktur tilshunoslik doirasida Sh.Iskandarovaning leksemalar komponent tahlili, so‘zning ma’nosi va taraqqiyoti, “shaxs” arxisemasi, “tafakkur” arxisemali barqaror birliklarning semantik xususiyatlariga doir ilmiy qarashlari haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan FA-A1-G007-raqamli “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2024-yil 23-avgustdagi 348/1-son ma’lumotnomasi). Natijada so‘zning ma’nosi va taraqqiyotiga oid ilmiy-nazariy qarashlar loyiha ishini boyitishga xizmat qilgan;

olimaning nutqiy odat shakllari, vazifalari va nutqiy vaziyatlar to‘g‘risidagi tahlil va tasniflarining nutq masalalari bilan bog‘liq izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi haqidagi xulosalardan 2023-2024-yillarda efirga uzatilgan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” nomli eshittirishlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-avgustdagi 04-36-938-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida tayyorlangan materiallarning mazmuni boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 139 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tilni sistemaviy asosda o‘rganish masalalari**” deb nomlanib, bob “Jahon tilshunosligida sistema tushunchasi va ahamiyati”, “O‘zbek tilshunosligiga sistemaviy yondashuv” hamda “Maydon nazariyasi va uning talqini” kabi fasllardan iborat.

Olam o‘zaro shartlangan bir-birini taqozo etadigan elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlit bir sistema sifatida kichik butunliklarga bo‘linuvchan xususiyatga egadir. Obyektiv olam oddiydan murakkabga qarab sinflarga birlashuvchi va ayni chog‘da, bo‘laklarga bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab sistema sanaladi. Bu bo‘linish inson ongida umumlashgan tarzda aks etadi va tilda o‘z ifodasini topadi hamda tilning obyektiv olam bilan ong orqali uzviy bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Obyektiv olamning inson ongida aks etishi va tilda o'z ifodasini topishi sistemaning muayyan mavzuiy guruhlarga bo'linishi orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham til sistemasini maydon sifatida o'rganish til – ong – borliq dialektik munosabatini ochishda katta ahamiyatga ega.

O'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tili leksikasini mavzuiy guruhlarga bo'lib o'rganish masalasiga ma'lum darajada e'tibor berildi. Bu yo'nalishda qator tadqiqotlar yuzaga chiqdi, doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari, monografik tarzdagi ishlar paydo bo'ldi. O'zbek tilini sistema sifatida ma'lum mazmuniy maydonlarga bo'lib o'rganish uchun, shubhasiz, ushbu tadqiqotlar zamin vazifasini o'taydi.

Tilshunos olimlar tomonidan garchi har qaysi mavzu guruhlari haqida alohida-alohida fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro munosabati, har qaysi guruh tarkibidagi birliklarning lingvistik munosabatlarini yoritishga yetarlicha e'tibor berilmadi.

O'zbek tilshunosligida hozirgi kunda yangi-yangi tadqiq usullarining qidirilishi ana shu talabdan kelib chiqadi. XX asr boshqa fanlar taraqqiyotida bo'lgani kabi, lingvistika tarixida ham asosiy e'tiborning obyektga substansional nuqtayi nazardan yondashuvdan struktur-funksional nuqtayi nazardan yondashuvga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bunga F.de Sossyur qarashlari sababchi bo'ldi. Bu g'oyaga muvofiq, strukturaning substansional ajratilishi va uning nisbiy mustaqilligining e'tirof etilishi tilshunoslikning keyingi davrida buyuk kashfiyotlarning qilinishiga turtki bo'ldi.

Til sistemasini mazmuniy maydon asosida tadqiq etish ham shu yo'ldagi izlanishlardan biridir. Til sistemasining muayyan mazmuniy maydonlardan tashkil topganligi, bu mazmuniy maydonlarning ichki tuzilishi, tuzilish birliklarining bir-biri bilan o'zaro munosabati, maydonlarning uzviy bog'lanishi singari muammolar jiddiy tadqiqotlar talab etadiki, ular bugungi turkiyshunoslik oldida turgan eng muhim vazifalardan sanaladi.

Tilga sistema sifatida qarash masalasi V. fon Gumboltdan tortib Boduen de Kurtene, V.Brendal, A.G.Volkov, E.Koseriu, E.Benvenist, M.M.Pokrovskiy, G.Ipsen, Y.Trir, L.V.Shcherba, A.I.Smirnitskiy, Z.S.Xerris, G.P.Melnikov, V.M.Solnsev, Y.G.Belyayevskaya, W.Labov, P.Postal, E.S.Kubryakova, S.V.Kezina, Y.V.Ponomarenko va boshqa bugungi kun olimlari tomonidan atroflicha tadqiq qilingan⁶.

⁶ Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию: Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.; Gumbold V. Yava orolidagi kavi tili haqida, 1840; Trier J. Немецкая лексика в семантическом поле, 1923; Porzig V. Das Wunder der Sprache, 1950; Ipsen G. Языковых полей, 1932; Guntert H. Kalypso, Bedeutungsgeschichtliche Untersuchungen auf dem Gebiet der indogermanischen Sprachen (German Edition), 1923. Беляевская Е.Г. Семантическая структура слова в номинативном и коммуникативном аспектах (Когнитивные основания формирования и функционирования семантической структуры слова): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – М., 1992. -32 с.; Бенвенист Э. Общая лингвистика / Пер. с франц. – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.; Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. – М.: Изд-во АН, 1963, т.1. -384.; т.2. -391 с.; Брэндал В. Структурная лингвистика // В.А. Звегинцев. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. – М.: Учпедгиз, 1960. – С 40-46; Хэррис З.С. Метод в структурной лингвистике // В.А.Звегинцев. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, ч. II.-М., 1960.-С.153-171; 1965.-С.209-227; Мельников Г.П. Системная лингвистика и ее отношение к структурной // Проблемы языкознания. - М., 1967.-С. 90-110; Волков А.Г. Язык как система знаков. – М.: МГУ, 1966. – 320 с.; Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. - Л.: Наука, 10, 1974.-428 с.; Солнцев В.М. Язык как системно-структурное

O'zbek tili leksikasini atroflicha o'rganishda S.Ibrohimov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, X.Doniyorov, Z.Ma'rupov, H.Ne'matov, I.Qo'chqortoyev, Olim Usmon, T.Aliqulov, B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, E.Umarov, B.Bafoyev, H.Dadaboyev, R.Rasulov, R.Doniyorov, T.Nafasov, N.Mahkamov, A.Madvaliyev kabi olimlarning xizmatlari beqiyos. Ular fundamental tadqiqotlari bilan o'zbek tili leksikasini sistema sifatida o'rganish uchun ulkan zamin hozirladilar va bu usulni bir qadar boshlab ham berdilar, o'zbek tili sistem leksikologiyasiga asos soldilar. Sh.Rahmatullayev, E.Begmatov, H.Ne'matov, N.Mahmudov, R.Rasulov, M.Mirtojiyev, O.Bozorov, Sh.Iskandarova, R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, B.Qilichev, G.Ne'matova, H.Saidovalarning ilmiy izlanishlari esa to'g'ridan to'g'ri leksikani sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlanganligi bilan muhim o'rin tutadi.

A.Sobirovning fikricha, o'zbek tilshunosligiga maydon nazariyasining kirib kelishi til birliklariga nisbatan sistem-struktur metodlarning qo'llanila boshlashi bilan bog'liq. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ichida A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, I.Qo'chqortoyev, E.Begmatov, T.Mirzaqulov, Sh.Iskandarova, O.Bozorov, R.Safarova, B.Qilichev, M.Narziyeva, F.Safarov, H.Hojiyevalarning ilmiy kuzatishlari va olingan xulosalar o'zbek tili leksikasini maydon nazariyasi asosida o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Sh.Iskandarova shaxs mikromaydoni misolida o'zbek tili leksikasini semantik maydon sifatida o'rganish muammolarini ko'tarib chiqdi. Sh.Iskandarova olamning guruhlariga bo'linishi va uning tilda aks etishi haqida batafsil fikr yuritib, shaxs mikromaydonida faoliyat ko'rsatuvchi 100 ga yaqin leksik-semantik guruh haqida ma'lumot beradi. Masalan, savodxon, donishmand, zakovatli, farosatli, idrokli, qoloq kabi leksemalar saviya asosida farq qiluvchi nomlar guruhiga kiritiladi, ularning umumiy va farqli tomonlari izohlanadi. T.Mirzaqulov o'zbek tili morfem paradigmikasi va sintagmatikasi masalalariga to'xtalar ekan, funksional-semantik maydonning xususiyatlarini yoritib beradi. Uning ta'kidlashicha, tilshunoslikda maydon (leksik, leksik-semantik, semantik, morfosemantik, assotsiativ, grammatik, funksional-semantik maydon) paradigmatika, paradigma tushunchalaridan farqlanmagan holda qo'llanilaveradi. Aslida, maydon bir umumiy mazmun yoki shakl o'xshashligi asosida turli sathlarga tegishli birliklarning funksional-semantik birlashuvidir. M.Abduvaliyev har qanday maydonning ma'no va ifoda plani qismlaridan tashkil topishini ta'kidlagan holda, maydonda dominant, yadro va periferiya qismlari mavjud bo'lishi haqida fikr yuritadi. Har bir tilda leksemalar muayyan qonun-qoidalar asosida bir yerga jamlanadi. Tildagi semantik maydon iyerarxiyasini belgilash, mazkur maydonlardagi makro, media va mikroqurilmalarni aniqlash uchun, avvalo, tilning falsafiy asoslariga e'tibor berish lozim. Falsafada olamga narsa va hodisaning bog'lanishlari, aloqadorligi,

образование.-2 издание. - М.: Наука, 1977.-344с.; Labov W. Denotational structure // Papers from the parasession on the lexicon. - Chicago, 1978. -P. 220-260; Кезина С.В. Семантическое поле как система // Филологические науки. - М., 2004. - № 4. - С. 79-86; Косериу Э. Синхрония, диахрония и история. (Проблема языкового извлечения) // Новое в лингвистике. Вып. 3 - М., 1963. - С. 143-346; Postal P. Limitations of Phrase Structure Grammars // The Structure of Language.-Englewood Cliffs (N.J.), 1964.-P. 137-154; Кубрякова Е.С. Структуры представления знаний в языке: Сб. науч. аналит. образов РАН ИНИОН. - М., 1994а - 160 с.; Пономаренко Е.В. О развитии системного подхода в лингвистике // Филологические науки.- М., 2004.-№5.-С. 24-34.

munosabatlarning tartibli, tadrijiy rivojlanishi, makon va zamondagi birligiga asoslangan yaxlit bir sistema sifatida qaraladi. Mazkur sistema ichidagi aloqalarni ta'minlaydigan mustaqil tarkibiy qismlarning har biri element sanaladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Professor Sh.M.Iskandarovanning ilmiy-nazariy konsepsiyasi tahlili”** deb nomlanib, bob “Jahon tilshunosligida sistema tushunchasi va ahamiyati”, “O‘zbek struktur tilshunosligining rivojida Sh. Iskandarovanning o‘rni” hamda “O‘zbek tilshunosligiga maydon nazariyasining kirib kelishi” kabi fasllardan iborat.

Professor Sh.Iskandarovanning “O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ilmiy jamoatchilikning e'tibori va e'tirofiga erishdi. 1998-yilda nashr etilgan “Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish muammolari” hamda 2007-yilda chop qilingan “Til sistemasiga maydon asosida yondashuv” nomli monografiyalari Sh.Iskandarova nomini o‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasining asoschisi va targ‘ibotchisi sifatida tanitdi. Sharifa Iskandarova g‘oyat izlanuvchan, fanning tarixiy taraqqiyoti bilan hamohang qadam tashlovchi olima sifatida lingvistik maydon haqidagi qarashlarini takomillashtirib, charxlab bordi⁷.

“Ustoz Sharifa Iskandarovani o‘zbek tilshunosligining tirik xazinasi, desak ham xato bo‘lmaydi. Uning muallifligida yaratilgan 30 dan ortiq kitoblar, jumladan, darslik, monografiya va o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, 300 ga yaqin ilmiy maqolalar ana shu xazinaning qimmatli gavharlari sifatida qadrlanayotgani, o‘qib-o‘rganilayotgani ham buning dalilidir⁸”, deydi “Maktab yaratgan marg‘ilonlik olima” maqolasining mualliflari.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda respublikamiz ilm-fani taraqqiyotida Farg‘ona filologiya maktabining o‘z nufuzi va o‘rni bor. Bu maktabning bunyod bo‘lishi va o‘z ilmiy an‘analariga ega bo‘lishida, tom ma’noda taraqqiy etishida Sharifa Iskandarova kabi zahmatkash va fidoyi olimlarning sa’y-harakatlari va mehnatlari beqiyosdir. Shu bois ham ustozni ana shu nufuzli maktabning onasi, Farg‘ona filologiya maktabidan yetishib chiqayotgan olima ayollarning yetakchisi deb aytishga haqlimiz, albatta.

Z.Rahimovning e’tiroficha⁹, professor Sh.Iskandarova o‘zbek tilshunosligi, tilga sistem-struktur asosda yondashuv bilan bog‘liq yangi yo‘nalishdagi ko‘plab tadqiqotlar muallifi sifatida respublika ilmiy jamoatchiligi o‘rtasida munosib mavqega ega. Davlat tilining ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi mavqeyini oshirishga, ma’naviy merosimizni targ‘ib qilishga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan tilshunos olima. Tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya, leksikografiya, grammatika, tilni sistema sifatida o‘rganish, lingvistikada maydon nazariyasi, pragmatika, etnolingvistik muammolari bo‘yicha ish olib boradi.

Farg‘ona davlat universitetida ilmiy maktab yaratgan. Olimaning tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya, leksikografiya, tilni sistema sifatida o‘rganish, lingvistikada maydon nazariyasi muammolari bo‘yicha olib borgan izlanishlari 1 ta

⁷ Sher Muhammadov B. Ilmga muhabbat va sadoqat // Ilmning nurafshon yo‘li. – Farg‘ona, 2023. – B.5.

⁸ Ibragimova E., Mamajonov M. Maktab yaratgan marg‘ilonlik olima // Ilmning nurafshon yo‘li. – Farg‘ona, 2023. – B.13.

⁹ Rahimov Z. E’tirof // Ilmning nurafshon yo‘li. – Farg‘ona, 2023. – B.9.

darslik, 4 ta monografiya, 20 ga yaqin o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 100 dan ortiq ilmiy maqolalarda o‘z aksini topgan.

“Tilshunoslik nazariyasi” (Farg‘ona, 2022) darsligi, “Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish” (T.: Fan, 1998), “Til sistemasiga maydon asosida yondashuv”(T.: Fan, 2007), “Lug‘aviy birliklarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari” (Farg‘ona, 2021), “Fitrat publitsistik asarlarida o‘zlashma leksemalar” (Farg‘ona, 2022) nomli monografiya, “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya” (T.: Yangi asr avlodi, 2001. Hammuallif), “Sistem tilshunoslik asoslari” (Farg‘ona, 2006), “Umumiy tilshunoslik” (Andijon, 2007), “Tilshunoslik nazariyasi” (T., 2008. Hammuallif), “Tilshunoslik nazariyasi” (2011), “Tilshunoslikning nazariy masalalari” (Farg‘ona, 2014), “O‘zbek tili” (Farg‘ona, 2016), “Til strukturasi” (Farg‘ona, 2017), “Nazariy tilshunoslik” (Farg‘ona, 2019. Hammuallif), “Tilshunoslik nazariyasi” (Farg‘ona, 2021. Hammuallif) singari o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari nashr etilgan.

Olimaning ilmiy maslahatchiligi va rahbarligida 19 ta, xususan, 1 ta doktorlik (N.Umarova, FarDU), 4 ta nomzodlik (D.Voqqosova (JalolobodDU), B.Qurbonova (FarDU), G.Isaqova (O‘zDSMI), M.Qahhorova (FarDU), 14 ta falsafa doktori (A.Rasulova (FarDU), U.Qo‘ziyev (NamDU), Z.Jo‘raboyeva (AnDU), M.Shokirova (FarDU), M.Omonov (FarDU), I.Xoldarova (FarDU), D.Ashurov (NamDU), K.Kahhorov (FarDU), D.Rahmatullayeva (QDPI), F.Kosimova (FarDU), R.Jo‘rayeva (QDPI), Z.Ma‘rufova (TDPU), G.Mamajonova (FarDU), D.Qo‘ldasheva (FarDU) dissertatsiyalari himoya qilingan. Hozirda Sh.Iskandarova ilmiy rahbarligida 20 ga yaqin tadqiqotchi doktorlik va falsafa doktori dissertatsiyalari ustida ilmiy izlanish olib bormoqda.

O‘zbek tilshunosligi mustaqillik davrida juda katta yutuqlarga erishdi. Jumladan, tilshunoslikka avvallari qoralangan qator nazariyalarning ham tadqiqot metodlari kirib keldi. Ana shunday metodlardan biri sistemaviy yoki struktur metoddir. O‘zbek tilshunosligida bu metodga tayangan bir qancha asarlar dunyoga keldi. Bu metodning o‘ziga xos xususiyati shundaki, obyektни avtonom holda emas, balki o‘ziga o‘xshagan boshqa obyektlar bilan munosabati asosida o‘rganadi va unga mayda elementlarning munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik sifatida qaraydi. Natijada tilni pog‘onaviy, ko‘p bosqichli ichki tuzilishga ega ekanligi e‘tirof etiladi. Tadqiqotchining e‘tibori obyektning moddiylashuviga emas, balki ular o‘rtasidagi munosabatga qaratiladi. Shuning uchun har bir sath umumiy va xususiylklarini aks ettiruvchi til va nutq zidlanishi asosida o‘rganiladi. O‘zbek tilshunosligida yetakchi mavqega ega bo‘lgan ana shu metod Sh.Iskandarovaning diqqatini jalb etdi va o‘zbek tili leksikasini mavzuiy guruhlarga bo‘lgan holda, har bir guruhni tashkil etgan a‘zolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganishga bel bog‘ladi. Natijada 1999-yilda “O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yakunladi. 1998-yilda “Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish muammolari” hamda 2007-yilda “Til sistemasiga maydon asosida yondashuv” nomli monografiyalarini “Fan” nashriyoti orqali ilmiy jamoatchilikka havola etdi. Bu izlanishlar Sh.Iskandarova nomini o‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasining asoschisi va targ‘ibotchisi sifatida tanitdi.

Sepir-Uorf nomi bilan mashhur bo‘lgan lingvistik nisbiylik nazariyasi til va tafakkurning o‘zaro zich aloqasiga, bir-biri bilan uzviy munosabatiga tayangan holda, har bir tilning o‘ziga xosligi shu til egalarining tafakkurida namoyon bo‘ladi, har bir xalqning tafakkuri uning til shakli bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi, degan g‘oyani olg‘a suradi. Bunga muvofiq, har bir xalq til shakliga muvofiq olam manzarasini yaratadi. Har bir tilning milliy xususiyati shu til egalari yaratgan OLMda aks etadi. Bunday manzara shaxslarning qarindoshlik munosabatida ham, vaqtning bo‘linishida ham, rangning farqlanishida ham namoyon bo‘ladi.

Jahon tilshunosligida til sistemasini o‘rganishda keng qo‘llanilayotgan bu nazariya Sh.Iskandarovaning sa’y-harakati tufayli o‘zbek tilshunosligiga kirib keldi. O‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklarning paradigmatic munosabati bir qator maqolalar, monografiyalar, darslik va qo‘llanmalarda ma’lum darajada yoritilgan bo‘lsa ham, lekin lingvistik maydon bilan nimasi umumiylikni tashkil qiladi-yu, nimasi bilan farqlanadi, degan savol qo‘yilmagan edi. Buning sababi lingvistik maydon nazariyasining hali tilshunoslikka singib ketmagani edi. Har bir yangi obyekt unga yaqin, shu kungacha ma’lum bo‘lgan boshqa obyektga qiyoslash, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlash, uning mohiyatini ochish gnoseologiyaning asosiy tamoyilidir¹⁰. Shu nuqtayi nazardan olimaning yangi kirib kelayotgan lingvistik maydon tushunchasini oldindan ma’lum bo‘lgan paradigma tushunchasiga qiyoslash va ularning bir-biridan farqli belgilarini ochishga harakati tabiiy bir holdir. Muallif bir sathga mansub birliklar o‘rtasidagi assotsiativ munosabatni paradigmatic munosabat sifatida tushungani holda, lingvistik maydon tushunchasini shu paradigmatic munosabatga qiyoslagan holda izohlaydi.

Tilning tuzilishini, uning leksik tizimini, xususan, leksik birliklarni til tizimidagi guruhlariga birlashtirish usullarini aks ettiruvchi modellarni tasavvur qilish va yaxshiroq tushunish uchun olimlar diqqatni guruhlashga qaratdilar. Terminlar lug‘atni guruhlariga ajratishning turli usullarini nomlashda namoyon bo‘ladi: “lingvistik soha”, “leksik-semantik guruh”, “tematik guruh”, “assotsiativ maydon” va boshqalar.

Maydon nazariyasi bo‘yicha jahon tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ammo, Sh.Iskandarova bu sohani tadqiq etganda milliy tilshunosligimizda endi ommalashayotgan va ochilayotgan qonuniyatlardan biri hisoblanardi. Shuning uchun “Maydon va uning mohiyati nima?” degan savolga zamonaviy tilshunosligimizdagi qarashlar va javoblar turlicha. Maydon tushunchasi aslida fizika sohasida paydo bo‘lgan bo‘lib, “fizik hodisa voqelanadigan yoki uning ta’siri paydo bo‘ladigan fazo¹¹” sifatida izohlanadi. Tilshunoslikda esa “maydon” quyidagicha talqin qilinadi. Ya’ni biz maydon so‘zini semantika bilan bog‘liq holda talqin qilamiz. Bu ikkala so‘z “semantik maydon” tarzida talqin etiladi. Tilshunoslikda semantikaning asosiy vazifasi ma’nolari bilan bog‘langan so‘zlarni birlashtiradi. Bunday so‘zlar, odatda, bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. Jumladan, rang – bo‘yoqni bildiruvchi so‘zlar: oq, qora, pushti; vaqtni bildiruvchi so‘zlar: peshin, shom, sahar, namozshom vaqti; harakat-holatni ifodalovchi so‘zlar: tez, sekin, sokin, asta. Ular alohida semantik maydonga egadir. Maydonni

¹⁰ Nurmonov A., Mo‘minov S. Olimaning toblanishi // Ilmning nurafshon yo‘li. – Farg‘ona, 2023. – B.18.

¹¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Ensiklopediyasi, 2006. – B.228.

